

---

## Bosh vazir o'rinbosari Qo'shtepada

Bugun, Bosh vazir o'rinbosari - Hukumat komissiyasi raisi J.Xodjayev boshchiligidagi respublika ishchi guruhi Qo'shtepa tumanidagi "Innovative apparel" MCHJga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida, J.Xodjayev boshchiligidagi ishchi guruh yangi tashkil etilayotgan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasida boshlangan ish jarayoni hamda korxonaning istiqbolli rejalari bilan tanishdi.

Tashrif chog'ida Bosh vazir o'rinbosari tuman mas'ullari va loyiha tashabbuskorlari bilan suhbatlashib o'zining takliflarini bildirdi.

2025-01-31 14:39:41